

BOSHLANG'ICH SINFLARDA EKOLOGIK MUAMMOLARINI O'RGANISH NEGIZIDA ULARDA ATROF-MUHITGA BO'LGAN MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH

Dotsent; Nuriddinova Maysara

Dilfuza Fayziyeva Toxir qizi

O'zbekiston- Finlandiya pedagogika instituti

fdilfuza331@gmail.com

Annostatsiya: Bugungi kunda barcha narsaning rivojlanishi, ko'plab yangiliklar bo'lishi atrof-muhitga ta'sir qilmay qolmayapti. Ammo hammasi ham texnologiyaning mahsuli emas. Tabiatga o'zimiz ham zararlanishiga hissa qo'shmoqdamiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga qanday o'zgarishlar bilan tanishtiramiz? Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarga bilim ham tarbiya ham bera olishi lozim. Shu jumladan, o'quvchilar bilan tabiatni o'rganish umumiy ekologik muammolarni o'rganish va u xususida tabiatni asrash - hissa qo'shishga o'rgatishdir. Bu amaliy ko'rinishi tashkil qilish va buning ostida loqaydlik bo'lmasligini ta'minlash xususida ushbu maqolada so'z boradi.

Kalit so'zlar: Farmon, huquq, ekologiya, tabiat, muammo, ekskursiya, sog'lom turmush tarzi.

Kirish. Yillar davomida ekologik muammolar va uning ta'siri xususida tadqiqot, kuzatish ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Har bir muammoning negizida tabiatni asrash muhim vazifa bo'lib qoladi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari bilan tabiiy fan olamida tabiatni bilish, muammolarini o'rganish tabiatni asrash qanday amalga oshirilishi haqida tushuncha hosil qilmoq kerak. O'quvchilar ma'lumotlarga tayangan holda xulosa chiqarishi kerak. Quyidagi ekologiya so'ziga berilgan tarifga etiborimizni qaratamiz.

“Ekologiya” yunoncha so'z bo'lib, “oykos”—uy va “logos”—fan, ta'limot degan ma'nolarni anglatadi. Bu atamani 1866- yilda nemis biolog-darvinist olimi Ernest Gekkel “Organizmlar morfologiyasining umumiy prinsiplari” asarida izohlab bergan edi. E.Gekkel “umumiy ekologiya” ni tirik organizmlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqalarini va

ta'sirini o'rganadigan fan deb, ta'riflagan edi [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof- muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra:

"Bir millon yashil oila" umummilliy harakati yo'lga qo'yiladi. Farmonga ko'ra 2025-yilda aholining salomatligi yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharitlarni yaratish borasida quyidagilar amalga oshiriladi:

Ekofaol fuqaro hayot tarzini keng targ'ib qilishga qaratilgan "Bir millon yashil oila" umummilliy harakati yo'lga qo'yiladi. 2025\2026 o'quv yilidan Markaziy Osiyo atrof muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti ekologiya, atrof- muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi kabi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha tashkiloti etib belgilanadi. 2025- yil 1-martgacha to'g'ri ovqatlanish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishning inson salomatligiga foydasini targ'ib qilishni kuchaytirish dasturi ishlab chiqiladi. Farmonga muvofiq, 2025-yilda mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko'chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish borasida quyidagilar ta'minlanadi. Aholi piyodalar va alohida velosiped yo'laklari bo'yida daraxtlar va o'simliklarni ekish orqali "Soyali sayr ko'chalari" tarmog'i yaratilishi, sohil va daryo bo'ylarida 80 ta infratuzilma ob'yekti va 110 kilometrdan ortiq sog'lomlashtirish yo'laklari qurilishi, Orol dengiz tubida 100 ming gektar "yashil maydon" barpo etilishi va Orolbo'yi mintaqasidagi o'rmonzorlar 2,1million gektarga yetkazilishi, jamoatchilik, ekofaollar va biznes vakillarining tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash akselepastiya tizimi joriy etilishi.

Adabiyotlar tahlili

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati. Tabiatga muhabbat - juda keng qamrovli va murakkab his-tuyg'udir. U yuksak ruhiy va aqliy qatlamlami o'z ichiga oladigan murakkab bir butunlikni tashkil etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga doir tadqiqot ishlarini olib borgan M.Umarovanning fikricha, bu hissiyotni tarbiyalashni bolalikning erta yoshidan boshlash

muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Forobiy tabiiy va inson qo'li bilan yaratiladigan sun'iy narsalarni ajratgan. Shuningdek, u tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilganligini va bunda inson omilining ta'siri katta ekanligini, tabiiy va sun'iy tanlash hamda tabiatga ko'rsatiladigan boshqa ta'sirlarni atroflicha baholagan. Rus pedagoglaridan K.D.Ushinskiyning, "Inson tarbiya predmeti sifatida" asari bilan tanishamiz. Ushinskiy "Men o'z hayot tajribamda shunday xulosaga keldimki, go'zal tabiat yosh qalbga shunday katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatar ekan, hatto pedagogikaning ta'siri ham u bilan raqobatlashishga ojizdir", - degan edi. Bizga ma'lumki, bola dunyoga kelar ekan ilk yoshligidan boshlab tabiat bilan muloqotda bo'ladi. Bu haqda buyuk pedagog olimlarimiz o'zlari yashab o'tgan davrda, bolaning har tomonlama o'sishida ma'naviy ozuqa beradigan tabiatning noz-ne'matidir deb, ta'kidlab o'tganlar. Biz hozirda o'tmishdagi pedagoglarimizning dono fikrlari va ilmiy asarlariga suyangan holda o'zimizning pedagogik faoliyatimizda foydalanamiz. Ibn Sinoning tog'laming vujudga kelishi, yer yuzining davrlar o'tishi bilan o'zgarib borishi, zilzilaning bo'lishi kabi turli tabiiy jarayonlar haqidagi fikrlari geologiya ilmining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. [2] Metodist tabiatshunis olimlardan Valerian Viktorovich Polovsev (1862-1919) "O'rta maktabda oquv predmetining vazifalari" to'g'risidagi doklatida "Nima uchun tabiatni o'qitish kerak?" deyilgan savol qo'yiladi va uning quyidagi kata tarbiyaviy ahamiyati ko'rsatib berildi:

1. Tashqi dunyo hodisalarini tushunish;
2. O'z organizmining yo'nalishlarini tushunish;
3. Psixik rivojlanishimizni taqazo qiluvchi eng muhim faktorlar sifatida sezuv organlarining rivojlanishi;
4. Tafakkur metodlarini tartibga solinishi yanada keng va umumiy rivojlanish;
5. O'quvchining ma'naviy ehtiyojlari doirasida kengaytirish va shu bilan birga uning axloqiy shaxsini rivojlantirish[3]. Shu jumladan yashab turgan hududimizni o'rganish, ekologiyaga ta'siri haqida o'quvchilarni tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rta Osiyo mintaqasi tizimida vujudga kelgan ijtimoiy - ekologik vaziyat aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Tadqiqotlar ijtimoiy - ekologik vaziyati yaxshi bo'lmagan mintaqalar: Orolbo'yi, Toshkent viloyati, xususan Angren, Olmaliq, Chirchiq va Toshkent shaharlari, Farg'ona vodiysining ko'pgina shaharlarida kasalliklarga chalinish darajasi eng yuqori ekanligini ko'rsatdi. Ijtimoiy – gigiyena va tibbiyot-tashxis tadqiqotlari atrof-muhit holati bilan insonning ruhiy – jismoniy ko'rsatkichlari o'rtasida bog'lanish borligidan dalolat beradi. Respublikada atmosferaga zararli moddalarni chiqarish muntazam ravishda ko'payayotgani kuzatilmoqda. Ekologiya – gigiyena darajasi past bo'lgan xalq xo'jaligi obyektlari soni yil sayin ko'paymoqda.[4]

Amaliy ishlarni tashkil etish. Ekologik muammolarni o'rganish orqali o'quvchilarda tabiat, jamiyat uchun qayg'urish hisssini shakllantirish va boshlang'ich sinfdaligida kerakli tushunchani va u orqali tabiatga o'z hissani qo'shishga o'rgatish muhimdir. Dars davomida videoroliklarda foydalanish, turli xil audio mantlardan foydalanish samarali yordam beradi. Mashg'ulot jarayonida xalqaro muammolar haqida (Orol dengizining yillar davomida qay holga kelgani, havoning ifloslaishiga oid, toza ichimlik suvi haqida va unga yetishish qiyin bo'lgan mamlakatlar) eng so'ngi xabarlar ulashish, aloqa vositalaridan foydalanishni ham bu yerdagi samarali tarkibga ham kiritish mumkin. O'quvchilar dunyoda bo'layotgan, yomon ahvolga kelgan tabiatdagi umumiy muammolarini o'rganish, yashab turgan hududdagi kerakli bilimlarga ega bo'lish va u orqali tejamkorlikka, tozalikka rioya qilishni o'rgatish uchun zamin yaratadi. Mashg'ulot jarayonlarida turli xil ekskursiyalar tashkil etish, maktabdagi umumiy tozalik uchun maktab hududlarida chiqindilar uchun maxsus idishlardan, umumiy foydalanish hududlarini (oshxona, hojatxona, sinf xonalari, zallar) foydalanishni o'rgatish va ko'nikma hosil qilish muhim vazifalardan hisoblanadi. Boshqa fanlar bilan integratsiya qilish va dars jarayonida ko'proq ma'lumot berish ham foydadan holi bo'lmaydi. O'quvchilar bu orqali mustaqil fikrlay olishi, o'z munosabatini bildira olishi kerak Maktab hududidagi mevali va manzaralar daraxtlarni asrash va "Hashar" kunlarida ishtirokini ta'minlash, bu orqali ularni asrash kelgusi avlod uchun xizmat qilishini uqtirish, ekologik

muammolarni barcha uchun barobarli va ularning barchasi tabiatni asrash muvozatini buzilishi, nazoratda ushlanmasligi ekanligini “kichik” e’tiborsizliklar ham, atrof-muhitga ta’siri etishini o’rgatish lozim.

Xulosa

Boshlang’ich sinf o’qituvchisi har tomonlama bilimli, yetuk bo’lishi muhim sanaladi. Fanlar ketma –ketligida har bir darslik o’zining mundarijasiga ega bo’lsa ham, bir-biri bilan bog’liqlik kasb etadi. Dars mashg’ulotlarini samarali metod, usullardan foydalishi kerak. Nafaqat bilim bera olishi har bir dars mashg’uloti yuzasidan tarbiya ham shakllantirishi lozim. Umumiy qoidalar muhim rol o’ynasa-da, har birining o’z yo’li, muhim qismlariga ega. Ayniqsa, o’quvchilarda tabiiy fanlar yuzasidan “ekologik madaniyat” va tabiatni asrashga o’rgatish, berilgan mavzu doirasida kerakli jihatlarni shakllantirishni o’z ichiga oladi. O’quvchi atrof-muhitni o’rganibgina qolmay, olam muammolariga loqayd ham bo’lmasligi asosiy vazifalardan sanaladi.. Sog’lom turmush tarziga rioya qila olishi, hayotida ko’proq tabiiy narsalarni ishtirokini (havoda sayr qilish, to’g’ri ovqatlanish, sport bilan shug’ullanish h.k) ta’minlash, diqqatli bo’lishi lozim. O’z ustida amalga oshiriladigan ishlarda og’ishmay davom eta olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston-2030 strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni 2025-yil 30-yanvar PF-16.
2. Q.N.Mamajonovna va boshqalar, Bolalarni tabiat bilan tanishtirish darslik, “BOOKMANY PRINT” TOSHKENT – 2023 (8-14-b)
3. X.M.Po‘latova, “Tabiatshunoslikni o‘qitish maxsus metodikasi”, O‘zbekiston respublikasi yozuvchilar uyushmasi, Toshkent 2006 (35-b)
4. A.Ergashev va boshqalar, Ekologiya fanidan “Ekologiya” nomli darslik. Toshkent 2018 (74-b)